

## FARG'ONA-TOSHKENT MAHALLIY USLUBINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATGAN IJTIMOIIY-MADANIY OMILLAR

Husanboyeva Gulzoda Hasanboy qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola O'zbek xalq musiqasining tarixiy rivojlanish yo'nalishlarini, uning shakllanishiga ta'sir qilgan omillarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda mahalliy musiqiy uslublarning kelib chiqishi, xalq turmushi, shahar va qishloq madaniyatining o'zaro aloqalari hamda ijtimoiy-siyosiy voqealarning musiqiy merosga ta'siri keng yoritilgan. Farg'ona-Toshkent hududida musiqaning rivojlanishiga oid qadimgi madaniy dalillar, xususan, Saymali tosh qoyatosh suratlari, o'tmishdagi musiqiy cholg'ular va ularning qo'llanilishi tahlil qilingan. Maqolada VII-XVIII asrlardagi siyosiy davrlar, jumladan, arab xalifotining hukmronligi, Somoniylar, Qoraxoniylar va Temuriylar davri madaniyati, shuningdek, Shayboniylar va uch xonlik (Buxoro, Qo'qon, Xiva) davrlarida musiqaning o'ziga xos jihatlari ko'rsatib berilgan.

Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubining murakkab shakli va ijro mahorati boshqa uslublardan farqli jihatlari sifatida ijtimoiy hayot erkinligi sharoitida shakllanganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqola Shashmaqom va Xorazm maqomlari kabi mumtoz musiqqa janrlarining paydo bo'lishi, ularga ta'sir qilgan tarixiy va madaniy muhitni tahlil etadi. Mahalliy musiqiy an'analar Farg'ona va Toshkent vohalarida keng rivoj topgan xalq qo'shiqlari, ayollar folklori, lapar, yalla kabi janrlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Ushbu maqola musiqiy merosni o'rganish va uni kelajak avlodga yetkazishda katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Musiqa, shashmaqom, ashulalar, milliy qo'shiqlar, maqom, meros, mahalliy, xalq musiqasi, madaniy, mumtoz.

O'zbek halq musiqasining tarixiy rivojlanishida mazkur mahalliy uslublarning kelib chiqishi juda ko'p omillarga bog'liq bo'lgan. Shu jumladan, millatimiz shakllanishining tarixan uzun jarayoni serurug' va ko'p turkiy tili qadimiy davlatning o'zaro birikib ketganligi, xalq hayotining uzoq— yaqin o'tmishida ro'y bergan tarixshumul ahamiyatga molik katta ijtimoiy—siyosiy voqeliklar (masalan, hozirgi O'zbekiston davlatchilik nuqtai nazardan qadimgi zamon va O'rta asrlarda bir qator katta— kichik podsholiklar, saltanatlar, xonlik va amirliklarga kirgani yoki ichidan bo'linib ketgani), yerli aholining turmush tarzi, qishloq va shahar madaniyatining o'zaro o'zgarib turgan muvozanatlari bog'bonchilik, chorvachilik, kasb-hunarmandchilikning o'rni, iqtisodiy ichki va tashqi savdo-sotiq ishlarning rivojlanish darajasi, boshqa millat va elatlar bilan o'rnatilgan iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy aloqalari, qo'ni-qo'shnihilikning o'zaro tarixi ahamiyatlidir.

Tarixdan ma'lumki hozirgi Farg'ona-Toshkent hududida shahar birlashmalarining vujudga kelishi uzoq o'tmish davrlarga borib taqaladi.

Saymali tosh darasidagi qoyatosh sur'atlarini biz o'rganayotgan davr san'atining ilk namunasi, deb atash mumkin.

Farg'ona tizma tog'larining Kukigart davoni yaqinidan topilgan bu qoyatoshlardagi sur'atlar majmuasi qadimgi Farg'ona aholisining boy ma'naviy madaniyatidan yaqqol dalolat beradi. Saymali tosh qoya sur'atlarining ilk davriga xos juda ko'p qismini shakl majmualar tashkil etadi va ular nihoyatda aniq nuqtalar bilan grafik tarzda ifoda etilgan.

Arxeologik tadqiqotlarni o'rganish orqali shu narsalar ayon bo'ldiki, saroy rasmiy tantanalari va turmushida musiqa katta ahamiyatga ega bo'lgan. Nay, ud, nog'ora, arora, qayrilgan shox shaklidagi karnay, kamoncha bilan chalinadigan asboblarning mavjud bo'lgan.

Qo'shiqchilar, raqqoslar, ko'zbo'yamachilar bo'lgan. Bu davrda Hind daryosining yuqori oqimidagi viloyatlar va Markaziy Osiyo xalqlari davlat ishlarida oromiy yozuvidan foydalanganlar. Keyinroq esa oromiy yozuvidan to'rtta yozuv ajralib chiqdi. Bular parfiya, so'g'd, baqtriya va Xorazm yozuvlari bo'lib, ular Markaziy Osiyo hududida salkam ming yil (arablar kelgunga qadar) saqlanib qoldi.

VII – IX asr – O'rta Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishi va arab xalifotini vujudga kelishi, islom dinini ommalashuvi hududlarda yangicha omuxta muxitni yuzaga keltirdi. Davlat tili va yozuvi – arab tili bo'ldi.

Akademik A.Muhammadjonov yozishicha, IX asr oxirlaridayoq qorluqlar jabg'usi islom dinini qabul etgan. X asr o'rtalariga borganda qorluqlarning kattagina qismi musulmon bo'lgan. Bu davrda Talosdan sharqda joylashgan bir qancha qorluq shaharlarida jome masjidleri bino qilingan. X asr oxirida Qoraxoniylar Movarounnahrni egallagach, qorluqlar Shosh (hozirgi Toshkent) vohasiga hamda Farg'ona va Zarafshon vodiylariga ko'chib kelib o'rtnashdilar. Keyinchalik ular asta-sekin Movarounnahrning mahalliy o'troq dehqon va chorvador aholisi tarkibiga singib ketadilar.

Boshqa bir jihatdan VIII – IX asr – turk ko'chmanchi bosqinchilari bostirib keldi va turk kogatini vujudga keldi. Davlat tili va yozuvi – turkiy. O'rta Osiyo Turkiston<sup>33</sup> deb nom oladi.

IX – X asrlar - Somoniylar sulolasini vujudga keldi va Buxoro markazlashdi. Sharqda musiqa ilmini shakllanish davrini yuzaga keltirdi. Ushbu davr Sharq Arastusi Farobiy kabi buyuk allomalarimizni yetishtirib chiqardi.

X – XI asr – Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlati vujudga keldi. Abu Ali ibn Sino o'zigacha yashab ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar ta'limotlarini mukammallashtirdi.

XIII asr hududlarimiz tarixida O'rta Osiyoni Chingizxon boshchiligidagi mo'g'il-tatar qo'shinlari tomonidan bosib olinishi bilan muhrlandi va madaniyat rivoji bu davrda bir muncha vaqtga rivoj topishdan to'xtadi.

XIV – XV asr – Amir Temur saltanatining vujudga kelishi hududlarimizda Sharq Renessansi davrini yuzaga keltirdi. Barcha mavjud sohalar gullab yashnadi.

XVI asr – O'rta Osiyo xududdi Shayboniixon tomonidan bosib olindi. Shayboniylar davlati vujudga kelishi Temuriylar saltanatiga barham berdi.

XVII – XVIII asr – Buxoro, Qo'qon, Xiva xonliklarining vujudga kelishi nafaqat musiqa san'atida balki ijtimoiy hayotning barcha jabxalarida mahalliy uslublarning yanada yaqqol rivoj topishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi va Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Xorazm hamda Qashqadaryo-Surxandaryo mahalliy uslublari yanada takomillashib bordi.

<sup>33</sup>Turkiston – Turklar makoni degan ma'noni anglatadi

Farg'ona-Toshkent hududida madaniyat ilk davlatchilik tuzimi davrlaridanoq rivoj topib kelgani borasidagi yuqorida keltirilgan asosli tarixiy faktlarga suyanib fikr yuritadigan bo'lsak, O'zbekiston hududida keng ommalashgan musiqiy folklor namunalari orasida Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubida ijro etilgan folklor namunalarining boshqalarga nisbatan shaklan va ijro mahorati jihatidan murakkabligi sabablari bejiz emasligiga amin bo'lamiz. O'zbek mumtoz musiqasining yuksak namunadagi maqomlari boshqa mahalliy uslublar namunasi sifatida shakl topgan Shashmaqom va Xorazm maqomlarining kelib chiqishi va rivoj topish shart sharoyitlari o'rganilganda ishonchli manbalar ularning shahar madaniyati, aniqrog'i saroy sharoyitida yuksalganiga guvohlik beradi. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari vujudga kelish sharoiti ushbu namunalardan mutloq farq qilib, ular saroy sharoitida emas ijtimoiy hayot erkinligida vujudga kelgani va rivoj topganini ko'rishimiz mumkin. Shayboniyxonlar davlatidan so'ng katta hudud uch xonlikka Buxoro amirligi, Xorazm xonligi va Qo'qon xonligiga ajrashi natijasida hududiy mustaqillik va iqtisodiy siyosat Qo'qon xonligida xavas qiladigan darajada bo'lmagani, saroydagi muhit, ma'naviy dunyoqarash islomiy diniy e'tiqod ommalashgani tufayli san'atdagi "Nazm va Navo" dan Navo emas Nazm san'ati afzal ko'rilgani va shu sharoit tuxfasi sifatida adibxonlik kechalari qizg'in yo'lga qo'yilgani oqibatida o'zbek adabiyoti zarvaraqlarida Nodirabegim Uvaysiy hamda uning ro'shnolari kabi yetishib chiqqan shoirlarimizning ijodlari xalqimiz ma'naviyati yuksalishi yo'lida hizmat qilayotganini guvohi bo'lamiz. Ushbu davr sharoiti taqazo etgan ijtimoiy muhit oqibatida hozirgi Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari vujudga keldi va xalq orasidan otilib chiqqan iste'dodli xalq hofizlari soha rivoji yo'lida sitqi dildan mehnat qildilar va ma'naviyati yuksak xalq mehrini qozonish yo'lida tinmay izlandilar.

Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubini tashkil etgan janrlarga to'xtaladigan bo'lsak, Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasida qaror topgan mahalliy musiqiy an'analar majmui Farg'ona Toshkent mahalliy uslubi deyiladi. Mazkur uslubning o'ziga xos jihatlari o'zbek xalq musiqasi ijodiyoti (bolalar qo'shiqlari, ayollar folklori, terma, lapar, yalla, ashula va b.) hamda mumtoz musiqasi (doston, ashula, katta ashula, maqom va b.) namunalari kuzatiladi. O'zbek an'anaviy musiqasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan ushbu uslub doirasida xalq musiqasining eng qadimiy davrlarga mansub kuy ohang va usul namunalari ham o'z aksini topgan. Jumladan, bolalar («Laylak keldi», «Olatoy», «Oftob chiqdi» va b.) va mavsumiy marosim qo'shiqlari («Boychechak», «Binafsha» va b.)da xalq musiqiy tafakkurining ilk bosqichlariga oid quyi (birlamchi) tuzilma va darakchi ohang alomatlari, parda asoslarida esa angemitonika xususiyatlari yaxshi saqlanib qolgan. Shuningdek, inson nutqi, so'z aytish talaffuziga yaqin ohanglar dostonchi baxshilar ijodida ham muhim o'rin tutadi. Farg'ona-Toshkent mahalliy musiqasi uslubi — ushbu uslubgagina xos bo'lgan katta ashula janrida esa nutqdosh ohanglarning mumtoz g'azallar obrazlariga hamohang kuychanlik bilan payvasta bo'lgan.

Odatda, so'zdosh toifali ohanglar qo'llangan janrlarda doira usullari qo'llanilmaydi. Bulardan farqli o'laroq, kuychan xususiyatli janrlar (ashula, yalla, maqom va b.)da jo'rnavoz cholg'ular keng qo'llanilishi kuzatiladi. Xususan, xotin-qizlar davralarida raqsga tushib yalla va lapar aytish, ashula kuylash (yallachilik) odat tusini olgan. Yakka holda yallachilar o'z qo'shiqlariga dutor yoki doirada jo'r bo'lishadi. Ansambl shaklida ijrochilar

esa odatda 2—3 ayoldan iborat bo'lib, ular asosan doira jo'rligida kuylashadi. Yallachilarning repertuari yalla, lapar va to'ymarosim qo'shiqlari («Yor-yor», «Kelin salom», «O'lan» va b. asar)dan tashkil topadi. Yallachilikning yana bir ko'rinishi Namangan an'anasida «satang» deb atalib, bular ko'proq turkumli (2 va undan ortiq, qismli), «katta yalla»larni doira jo'rligida (odatda raqsga tushib) kuylaydilar.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi - so'lim tabiatli sharoitda kuy-ohanglar ham shakllangan bo'lib, ularning namunalarini mahalliy ashulalarda ko'rish mumkin. Bular ikki xil bo'ladi: xalq og'zaki musiqa ijodida yuzaga kelgan ashulalar hamda bastakorlar tomonidan ijod etilgan ashulalar. «Tanavor», «Ey nozanin», «Oydek to'libdur», «Farzoni», «Ul parivash» singari xalq ashulalari nafaqat hofizlar, balki ziyolilar, hunarmandlar va boshqa kasb egalari, shuningdek, xotin-qizlar tomonidan ham ijro etib kelingan. Ayni paytda, «Nigorim», «Galdr», «Nisor», «Fig'on», «Chaman yalla» singari ashulalarni, asosan, hofizlar mukammal ijro etib kelmoqda. Bunda tanbur va dutor jo'rnavozligi ko'p qo'llaniladi. Bu turdagi uslubni shakllantirishga T. Jalilov, K. Jabborov, J. Sultonov, G. Toshmatov, Fahriddin Sodiqov kabi bastakorlar katta hissa qo'shganlar.

O'zbek xalq musiqasi milliy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, uning boy merosi xalqning tarixiy, ma'naviy va badiiy qarashlarini aks ettiradi. Shashmaqom, xalq qo'shiqlari, lapar va yalla kabi janrlar o'ziga xos musiqiy xususiyatlarga ega bo'lib, har bir hududning musiqiy an'anasini namoyon qiladi. Farg'ona-Toshkent uslubi va boshqa mahalliy uslublar milliy musiqaning xilma-xilligini ta'minlab, uning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Ushbu musiqiy meros nafaqat tarixiy qadriyatlarni saqlashda, balki yosh avlodni tarbiyalashda ham muhim o'rin tutadi. Shu bois, O'zbek xalq musiqasini o'rganish va targ'ib qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Yunusov "O'zbek xalq musiqa ijodi" T.,1992y 4-6 bet
2. N. Xalilova "O'zbek musiqa adabiyoti" Toshkent.: 2017. -107b.
3. Azizxodjaeva N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - T.: TDPU, 2003.
4. Farg'ona davlat universiteti san'atshunoslik fakulteti "Musiqqa ta'limi kafedrasini o'qituvchisi Ulug'bek Rahmonov "O'zbek musiqa adabiyoti" fanidan o'quv qo'llanma. 2019y.
5. Muhabbat Solixova "An'anaviy xonandalik ansambli" – Toshkent – 2010.
6. Sultonali Mannopov "Navobaxsh oxanglar" Toshkent "IJOD-PRESS" 2018.
7. Soibjon Begmatov "Hofizlik san'ati" o'quv uslubiy qo'llanma -"Musiqqa" nashriyoti – Toshkent – 2007.
8. Shokirkhanov, B. B., & Mahkamjanov, S. Q. O. (2021). The importance of the science of harmony in music practice. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 735-739.
9. Ibrohimov, A., & Maxkamjanov, S. (2023, February). OPERA SAN'ATINING VOKAL JANIRI. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 2, pp. 175-177).



10. Maxkamjanov, S., & Ibrohimov, A. (2023). NAY CHOLG'USI IJROCHILIK SAN'ATI TARIXI VA RIVOJLANISH JARAYONI. *Инновационные исследования в науке*, 2(2), 37-40.
11. Mukhamedovich, R. D. (2022). CULTURE AND ART IS THE EMBODIMENT OF NATIONAL VALUES. *Conferencea*, 97-102.
12. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
13. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9